



OLIV TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING YANGI IJTIMOIV MUHITGA MOSLASHUVIDA KOMMUNIKATIV QOBILIVATLARNING O'RNI

Sharq Universiteti

“Psixologiya” yo‘nalishi talabasi

Jumayeva Aziza Hamid qizi

Ilmiy rahbar: Nasulloyeva. Sh

Telefon: +998(90) 717 78 17

azizahamidovna327@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvida kommunikativ qobiliyatlarning hal qiluvchi o‘rni psixologik nuqtayi nazardan yoritiladi. Ta’kidlanadiki, rivojlangan kommunikativ kompetensiya nafaqat ijtimoiy integratsiyani tezlashtiradi, balki shaxsning o‘ziga ishonchini mustahkamlab, uning akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Muloqot madaniyati shakllangan talaba — bu nafaqat faol ishtirokchi, balki jamiyat taraqqiyotiga daxldor ongli shaxsdir.

Kalit so‘zlar: kommunikativ qobiliyat, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy integratsiya, psixologik moslashuv, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faollik.

Аннотация: В современных условиях глобализации и стремительных социальных изменений каждый студент, поступающий в высшее учебное заведение, сталкивается с новым социальным пространством. Ключом к успеху в этом пространстве является, даже в большей степени, чем знания, умение эффективно общаться, уверенно выражать свое мнение и слушать других. В данной работе подчеркивается решающая роль коммуникативных навыков в адаптации студентов к новой социальной среде с психологической



точки зрения. Подчеркивается, что развитая коммуникативная компетентность не только ускоряет социальную интеграцию, но и укрепляет уверенность в себе, создавая основу для его академического и социального успеха. Студент с развитой коммуникативной культурой является не только активным участником, но и сознательным человеком, вовлеченным в развитие общества.

Ключевые слова: коммуникативные способности, социальная адаптация, коммуникативная компетентность, социальная интеграция, психологическая адаптация, личностное развитие, социальная активность.

Abstract: In today's conditions of globalization and rapid social changes, every student entering a higher education institution faces a new social space. The key to success in this space is, even more than knowledge, the ability to communicate effectively, to express one's opinion confidently, and to listen to others. This thesis highlights the crucial role of communicative skills in students' adaptation to a new social environment from a psychological point of view. It is emphasized that developed communicative competence not only accelerates social integration, but also strengthens the self-confidence of the individual, creating the basis for his academic and social success. A student with a developed communication culture is not only an active participant, but also a conscious individual involved in the development of society.

Keywords: communicative ability, social adaptation, communicative competence, social integration, psychological adaptation, personal development, social activity.

Kirish. Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar nafaqat yuqori malakali mutaxassis tayyorlashni, balki jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan, ijtimoiy faol va moslashuvchan shaxsni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Talabalik davri inson hayotidagi eng keskin burilish nuqtalaridan biri bo'lib, u nafaqat ta'lim



darajasining o‘zgarishi, balki butunlay yangi ijtimoiy muhit, yangi qadriyatlar va muloqot tizimiga kirib borish bilan xarakterlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan muhim siyosiy-huquqiy hujjat sifatida tarixga kirdi. Mazkur strategiya Yangi O‘zbekiston g‘oyasini amaliy harakatlar dasturiga aylantirib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini chuqur isloh etishni maqsad qildi. Unda yetti ustuvor yo‘nalish belgilangan bo‘lib, ular orasida inson qadrini yuksaltirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ta‘lim sifatini oshirish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Strategiyada oliy ta‘lim sohasiga oid vazifalar aniq va qat‘iy ifodalangan: universitetlar qamrovini kengaytirish, ta‘lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, akademik erkinlikni ta‘minlash, yoshlarning ilm-fan va innovatsiyaga qiziqishini oshirish. Bu esa talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini ham kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar siyosatiga berilgan e‘tibor strategiyaning yuragi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hujjatda yoshlarning bandligi, tadbirkorlik tashabbuslari, ma‘naviy-ma‘rifiy kamoloti hamda ijtimoiy himoyasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi: grantlar, startap loyihalar, xorijiy hamkorlik dasturlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytiriladi [1]. Bugungi globallashuv davrida oliy ta‘lim dargohiga qadam qo‘ygan talaba endi shunchaki o‘quvchi emas – u murakkab ijtimoiy tizimning faol ishtirokchisiga aylanadi. Universitet muhiti bu nafaqat auditoriya va ma‘ruza, balki yangi qadriyatlar, yangi munosabatlar va yangi mas‘uliyatlar makonidir. Ana shunday jarayonda kommunikativ qobiliyat shaxsning eng muhim psixologik tayanchiga aylanadi.



Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Psixologiya fanida kommunikativ qobiliyat shaxsning ijtimoiy muhit bilan samarali o‘zaro ta’sir o‘rnatish, fikr almashish, hissiy munosabat bildirish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish layoqati sifatida talqin qilinadi. Bu borada rus psixologi Lev Vigotskiy o‘zining “tafakkur va nutq” haqidagi ilmiy qarashlarida shaxs rivojida muloqotning hal qiluvchi o‘rni borligini ta’kidlaydi [2]. Uning fikricha, inson tafakkuri ijtimoiy muhitda shakllanadi va nutq orqali takomillashadi. Demak, talabaning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi bevosita uning muloqot madaniyatiga bog‘liqdir. Shuningdek, amerikalik psixolog Deyl Karnegi o‘zining mashhur “How to Win Friends and Influence People” asarida insonlar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish shaxs muvaffaqiyatining asosiy omili ekanini ilmiy-amaliy misollar orqali asoslab beradi [3]. U insonning boshqalarni tinglay bilishi, hurmat bilan yondashuvi va ochiq muloqoti ijtimoiy integratsiyani tezlashtirishini qayd etadi. Bu fikrlar bugungi talaba hayotida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Oliy ta’lim muassasasida talabaning ijtimoiy moslashuvi bir necha bosqichda kechadi: dastlab psixologik moslashuv, so‘ng guruh bilan integratsiya, keyin esa ijtimoiy faollik shakllanadi [4]. Agar kommunikativ kompetensiya yetarli darajada rivojlangan bo‘lsa, talaba yangi jamoaga tez kirishadi, o‘z fikrini erkin ifodalaydi va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Aks holda esa ichki tortinchoqlik, ijtimoiy izolyatsiya va moslashuv qiyinchiliklari yuzaga kelishi mumkin. Bugungi talaba auditoriyada o‘tirgan jim tinglovchi emas – u jamiyat kelajagini belgilovchi intellektual kuchdir. Uning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va kasbiy kamoloti muloqot madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Kommunikativ qobiliyat shakllangan talaba o‘ziga ishonadi, atrofdagilar bilan sog‘lom munosabat quradi va ijtimoiy jarayonlarga befarq bo‘lmaydi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz doirasida K.Rojers va R.Daymond tomonidan ishlab chiqilgan “Ijtimoiy-psixologik moslashish” metodikasi ko‘rsatkichlarining jins bo‘yicha tafovutlarini Mann Uitni U-mezoni yordamida



tahlil qildik. Olingan natijalar talaba yigit va qizlarning yangi ijtimoiy muhitga moslashish strategiyalari turlicha ekanligini ko'rsatdi. Unga ko'ra, moslashuvchanlik shkalasida ($U=2895.50$ $p>0.05$), yolg'on shkalasida ($U=3065.0$ $p>0.05$), o'zini qabul qilish shkalasida ($U=3008.50$ $p>0.05$), o'zgalarni qabul qilish shkalasida ($U=3094.0$ $p>0.05$), o'zgalarni qabul qilmaslik shkalasida ($U=2702.0$ $p>0.05$), emotsional komfort shkalasida ($U=2703.50$ $p>0.05$), ichki nazorat shkalasida ($U=2902.50$ $p>0.05$), tashqi nazorat shkalasida ($U=2917.0$ $p>0.05$), boshqarish shkalasida ($U=2767.0$ $p>0.05$), boshqarilish shkalasida ($U=2661.50$ $p>0.05$), eskapizim (muammodan qochish) shkalasida ($U=3060.50$ $p>0.05$) sezilarli farqlar aniqlanmadi.

1-jadval K.Rojers va R. Daymond tomonidan ishlab chiqilgan "Ijtimoiy psixologik moslashish" metodikasi ko'rsatkichlarining jins bo'yicha tafovutlarini tekshirish natijalari (Mann Uitni U-mezoni)


| | O'rtacha rang ko'rsatkichlari | | U | p |
|----------------------------|-------------------------------|----------------|----------|---------|
| | Yigitlar N=79 | Qizlar N=81 | | |
| Moslashuvchanlik | 84.35 | 76.75 | 2895.500 | .299 |
| Dezadaptivlik | 93.84 | 67.49 | 2145.500 | .000*** |
| Yolg'on | 78.80 | 82.16 | 3065.000 | .646 |
| O'zini qabul qilish | 82.92 | 78.14 | 3008.500 | .514 |
| O'zini qabul qilolmaslik | 73.01 | 87.81 | 2607.500 | .043* |
| O'zgalarni qabul qilish | 81.84 | 79.20 | 3094.000 | .718 |
| O'zgalarni qabul qilmaslik | 74.20 | 86.64 | 2702.000 | .089 |



| | | | | |
|-----------------------------------|-------|-------|----------|--------|
| Emotsional komfort | 74.22 | 86.62 | 2703.500 | .090 |
| Emotsional diskomfort | 70.85 | 89.91 | 2437.000 | .009** |
| Ichki nazorat | 84.26 | 76.83 | 2902.500 | .311 |
| Tashqi nazorat | 84.08 | 77.01 | 2917.000 | .334 |
| Boshqarish | 75.03 | 85.84 | 2767.000 | .138 |
| Boshqarilish | 73.69 | 87.14 | 2661.500 | .065 |
| Eskapizim muammodan qochish | 78.74 | 82.22 | 3060.500 | .635 |

Dezadaptivlik shkalasida 99.9% ishonch darajasida yuqori tafovut namoyon bo'ldi ($U=2145.50$, $p<0.001$). Natijalarga ko'ra, yigitlar yangi ijtimoiy muhitga kirishish jarayonida ijtimoiy-psixologik stressga, guruhdoshlar orasida o'zini tasdiqlash (liderlikka intilish) va yangi akademik rollarga ko'nikishdagi ichki qarshiliklarga ko'proq duch keladilar. Bu ularning dezadaptivlik shkalasida yuqoriroq ko'rsatkich qayd etishiga sabab bo'lgan. Qizlar esa tabiatan muloqotga moyilroq va egiluvchan bo'lganliklari sababli, yangi jamoaga kirishishda kamroq qarshilik ko'rsatadilar.

O'zini qabul qilolmaslik (ichki tanqid) shkalasi bo'yicha 95% ishonch darajasida farq topildi ($U=2607.50$, $p<0.05$). Ko'rsatkichlar qizlarda sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Bu qizlar orasida o'ziga nisbatan o'ta yuqori talabchanlik, akademik natijalardan qoniqmaslik va ichki tanqidning kuchliligini ko'rsatadi. Mazkur holat jamiyatda qizlarga yuklangan ijtimoiy mas'uliyatlar (o'qishda namunali bo'lish, oilaviy kutuvlar, tashqi ko'rinishga e'tibor) va ularning o'z yutuqlarini past baholashga moyilligi bilan izohlanishi mumkin. Yigitlar esa bu borada ko'proq o'ziga ishonch va ichki barqarorlik namoyon etganlar.



1-rasm. K.Rojers va R. Daymond tomonidan ishlab chiqilgan “Ijtimoiy psixologik moslashish” metodikasi ko‘rsatkichlarining jins bo‘yicha tafovutlarini tekshirish natijalari (Mann Uitni U-mezoni)

Emotsional diskomfort shkalasida 99% ishonch darajasida tafovut aniqlandi ($U=2437.0$, $p<0.01$). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qizlarda emotsional tanglik, xavotir va ruhiy noqulaylik darajasi yuqoriroq. Bunga sabab sifatida qizlarning emotsional ta’sirchanligi, uydan uzoqlashish (sog‘inch), yangi do‘stona aloqalarni shakllantirishdagi xavotirlar va ko‘p funksiyalilik (o‘qish, uy ishlari, ijtimoiy hayot) yuklamalarini ko‘rsatish mumkin. Yigitlar esa emotsional jihatdan nisbatan barqaror ko‘rinadi; bunga sabab sifatida yigitlarning o‘z his-tuyg‘ularini jilovlash, ularni tashqariga bildirmaslik va muammolarni ratsional hal qilishga moyilligi xizmat qiladi.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasasi talabalarining yangi ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonini psixologik jihatdan o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ qobiliyatlar ushbu jarayonni harakatga keltiruvchi va talabaning shaxsiy barqarorligini ta’minlovchi fundamental omil hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy nazariy va amaliy xulosalari shuni tasdiqlaydiki, muloqot – moslashuv mexanizmi sifatida namoyon bo‘lib, talabaning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi



bevosita uning muloqot madaniyati va nutqiy faolligiga bog‘liqdir. Bu jarayonda kommunikativ kompetensiya shaxsning asosiy psixologik tayanchiga aylanishi bilan birga, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga yo‘l ochadi. Kommunikativ qobiliyati shakllangan talaba atrofdegilar bilan sog‘lom munosabatlar qurish orqali akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatga zamin yaratadi hamda ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, tizimli yondashuv zaruriyati shundan iboratki, oliy ta‘lim dargohiga qadam qo‘ygan talaba murakkab ijtimoiy tizimning faol ishtirokchisiga aylangani sababli, universitet muhitida muloqot madaniyatini rivojlantirish va yoshlarning ijtimoiy tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Umumiy xulosa qilib aytganda, kommunikativ jihatdan yetuk talaba nafaqat muvaffaqiyatli mutaxassis, balki jamiyat taraqqiyotida ongli ishtirok etuvchi ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi va uning ijtimoiy barqarorligi uchun mustahkam poydevor yaratiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh . PF-60-son Farmoni — “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. — Toshkent, 2022-yil 28-yanvar.
2. Lev Vigotskiy. Myshlenie i rech (Tafakkur va nutq). — Moskva: Pedagogika, 1982.
3. Deyl Karnegi. How to Win Friends and Influence People. — New York: Simon & Schuster, 1936.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.